
AHOLI MUROJAATLARI IJOBIIY HAL ETILMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshloq tumani Xalq qabulxonasida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayevning navbatdagi qabuli o'tkazildi.

Qabulda respublika ishchi guruhi vakillari, tuman hokimi hamda sektor rahbarlari fuqarolarning qiynayotgan muammolarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratdilar.

Murojaatlarning aksariyati uy-joy, moddiy yordam, pensiya, bolalar nafaqasi, ishga joylashish, oila turmush munosabatlari borasida bo'ldi. Har bir murojaat mutasaddilar tomonidan birma-bir muhokama qilindi, joyida ijobiy hal etildi. Ayrim muddat talab etilgan murojaatlar qat'iy nazoratga olindi.

2024-08-07 09:13:22